


Oriental Journal of Philology**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:
<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>

**DIGITAL MEDIA AS A FACTOR OF LANGUAGE CHANGE****Hilola A. Yuldasheva**

Associate Professor, Doctor of Philology (DSc)
 Uzbekistan, Tashkent

Manzurabonu A. Sidikova

Ist-year Master's student in Linguistics (Arabic language)
 Department of Arabic Studies
 Tashkent State University of Oriental Studies
 Email: bonusydyk@gmail.com
 Uzbekistan, Tashkent

ABOUT ARTICLE

Key words: digital media, language change, Arabic language, Egyptian dialect, social networks, communication, internet linguistics, Modern Standard Arabic, lexical changes, media influence.

Received: 06.03.25**Accepted:** 08.03.25**Published:** 10.03.25

Abstract: This article explores the impact of digital mass media on Arabic, focusing on the influence of the Egyptian dialect. The spread of the Egyptian dialect through digital platforms and its effect on Modern Standard Arabic are analyzed. The novelty of this study lies in its practical and theoretical analysis of how digital media shapes linguistic changes in Arabic. Findings suggest that digital media significantly influences the emergence of new Arabic forms and lexical transformations. In conclusion, digital communication plays a key role in the evolution of Arabic.

**RAQAMLI OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI TIL O'ZGARISHI OMILI
SIFATIDA****Hilola A. Yuldasheva**

Dotsent, filologiya fanlari doktori (DSc)
 O'zbekiston, Toshkent

Manzurabonu A. Sidikova

1-bosqich Lingvistika (arab tili) magistranti
 Arabshunoslik oliy maktabi
 Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
 Email: bonusydyk@gmail.com
 O'zbekiston, Toshkent

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: raqamli OAV, til o'zgarishi, arab tili, Misr shevasi, ijtimoiy tarmoqlar, kommunikatsiya, internet lingvistika, zamonaviy arab tili, leksik o'zgarishlar, media ta'siri.

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamli ommaviy axborot vositalarining arab tiliga, ayniqsa, Misr shevasiga ta'siri tahlil qilinadi. Misr shevasining raqamli platformalarda keng tarqalishi va uning adabiy arab tiliga ta'siri asosiy e'tiborda bo'ladi. Maqolaning yangiligi shundaki, u Misr shevasining raqamli media orqali adabiy arab tiliga ta'sirini amaliy va nazariy jihatdan yoritadi. Tadqiqot natijalari raqamli media arab tilining yangi shakllarini shakllantirishga va leksik o'zgarishlarga sezilarli ta'sir ko'rsatayotganini ko'rsatadi. Xulosa sifatida, raqamli kommunikatsiya arab tilining rivojlanishida muhim omil ekani ta'kidlanadi.

ЦИФРОВЫЕ СРЕДСТВА МАССОВОЙ ИНФОРМАЦИИ КАК ФАКТОР ИЗМЕНЕНИЯ ЯЗЫКА

Хилола А. Юлдашева

Доцент, доктор филологических наук (DSc)
Узбекистан, Ташкент

Манзурабону А. Сидикова

Магистрант 1-го курса лингвистики (арабский язык)
Высшая школа арабистики
Ташкентский государственный университет востоковедения
Email: bonusydyk@gmail.com
Узбекистан, Ташкент

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: цифровые СМИ, изменение языка, арабский язык, египетский диалект, социальные сети, коммуникация, интернет-лингвистика, современный арабский язык, лексические изменения, влияние медиа.

Аннотация: В статье рассматривается влияние цифровых СМИ на арабский язык, особенно на египетский диалект. Анализируется его распространение через цифровые платформы и влияние на литературный арабский язык. Новизна исследования заключается в анализе влияния цифровых медиа на языковые изменения в арабском языке. Результаты показывают, что цифровые медиа способствуют появлению новых форм арабского языка и лексическим изменениям. В заключение отмечается важная роль цифровой коммуникации в развитии арабского языка.

Kirish. Raqamli ommaviy axborot vositalarining (OAV) rivojlanishi dunyo tillarining shakllanishiga ta'sir qilmoqda. Ayniqsa, arab tilining zamonaviy raqamli kommunikatsiyadagi o'rni o'zgarib, Misr shevasi singari mintaqaviy lahjalarning keng tarqalishiga sabab bo'lmoqda.

Internet va ijtimoiy tarmoqlarning ta'siri natijasida adabiy arab tilidan foydalanish shakli o'zgarib, norasmiy muloqot tili sifatida dialektlarning nufuzi ortmoqda. Ushbu tadqiqotda Misr shevasining raqamli platformalar orqali adabiy arab tiliga ta'siri tahlil qilinadi. Shuningdek, raqamli kommunikatsiya natijasida til tizimida yuzaga kelayotgan leksik va grammatik o'zgarishlar o'r ganiladi. Oldingi tadqiqotlar tilning ijtimoiy tarmoqlardagi o'zgarishini umumiy jihatdan yoritgan bo'lsa, ushbu maqola aniq misollar asosida Misr shevasining kengayishi va raqamli muhitdagi roli haqida fikr yuritadi. Tadqiqotning maqsadi – Misr shevasining raqamli ommaviy axborot vositalari orqali keng tarqalish jarayonini o'rganish va uning adabiy arab tiliga ta'sirini aniqlash.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Raqamli ommaviy axborot vositalari til o'zgarishiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Ilgari o'tkazilgan tadqiqotlar, jumladan, Al-Saidi (2020) va Abu-Melhim (2018), raqamli kommunikatsiyaning arab tiliga, ayniqsa, mintaqaviy shevalarning keng tarqalishiga ta'sirini o'rganib chiqqan. Holes (2019) Misr shevasining ommalashishiga qaramay, uning rasmiy yozma tilga aylanish ehtimolini past baholaydi, Badawi (2016) esa musiqa, kino va raqamli media orqali uning ta'siri kuchayib borayotganini ta'kidlaydi. Ushbu tadqiqotda Misr shevasining raqamli media orqali kengayishi va adabiy arab tiliga ta'siri tahlil qilinadi. Buning uchun YouTube, Instagram, TikTok va Twitter kabi platformalardagi Misr shevasida olib borilgan yozishmalar va videolar kuzatilib, tahlil qilindi. Ushbu metodologiya Misr shevasining hozirgi va kelajakdagi o'rni haqida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarishga imkon beradi.

Natijalar. Tadqiqot natijalari Misr shevasining raqamli ommaviy axborot vositalarida tobora ommalashib borayotganini tasdiqlaydi. YouTube, Instagram va TikTok kabi platformalarda Misr shevasida kontent yaratish keng tarqalgan bo'lib, bu uning boshqa mintaqalarga ham ta'sir o'tkazayotganini ko'rsatadi. Jumladan, Holes (2019) va Badawi (2016) tadqiqotlarida Misr shevasining media orqali tarqalishi adabiy arab tilining ba'zi sohalarda ikkilamchi o'ringa tushib qolishiga sabab bo'layotgani ta'kidlanadi. Olingan natijalarga ko'ra, raqamli platformalarda adabiy arab tili o'rniga Misr shevasidan keng foydalanish holati kuzatilmoxda. Ayniqsa, vloglar, intervyular va qisqa videolarda mintaqaviy shevalarning qo'llanilishi tendensiyasi ortib bormoqda. Bu esa arab tilining umumiy standartlashuvi jarayoniga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu bilan birga, ba'zi foydalanuvchilar rasmiy yozishmalarda va rasmiy axborot manbalarida hali ham adabiy arab tiliga ustuvorlik berishlarini ta'kidlaydi. Tahlillar natijasida, Misr shevasining leksik va grammatik jihatdan raqamli kommunikatsiyada yanada mustahkam o'rin egallayotgani kuzatildi. Kelgusida bu jarayon arab tilining umumiy me'yorlariga qanday ta'sir ko'rsatishi bo'yicha qo'shimcha tadqiqotlar talab etiladi.

So'nggi yillarda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi natijasida arab tilida sezilarli o'zgarishlar kuzatilmoxda. Internet, ijtimoiy tarmoqlar va zamonaviy media platformalarining

keng tarqalishi nafaqat muloqot uslublarini, balki arab tilining leksik, fonetik va grammatik tuzilishini ham o‘zgartirmoqda. Xususan, arab tilining rasmiy va norasmiy shakllari o‘rtasidagi chegara tobora yo‘qolib, dialektlarning yozma shaklda qo‘llanilishi kengaymoqda. Ushbu jarayon ayniqsa Misr shevasi misolida yaqqol kuzatilmoque.

Misr arab dunyosidagi eng yirik davlatlardan biri bo‘lib, madaniy, san’at va ommaviy axborot vositalari sohasida yetakchi markaz hisoblanadi. XX asr davomida Misr kinoin-dustriysi, musiqasi va televideniyesi butun arab dunyosiga katta ta’sir ko‘rsatib kelgan. Bugungi kunda esa bu jarayon internet, ijtimoiy tarmoqlar va raqamli platformalar orqali yanada tezlashgan. Ayniqsa, Misr shevasining kino, podkastlar, YouTube videolari va TikTok kontenti orqali ommalashishi natijasida ushbu dialekt butun arab dunyosida keng qo‘llanila boshladi.

Arab tilidagi o‘zgarishlarning eng muhim omillaridan biri ijtimoiy tarmoqlarning ommalashuvi va ularning kundalik muloqotga ta’siridir. YouTube, Facebook, Twitter, Instagram va TikTok kabi platformalar arab tilida yozma va og‘zaki muloqot formatlarini o‘zgartirib, yangi til shakllarining shakllanishiga sabab bo‘lmoqda. An’anaviy ravishda arab tilida yozish jarayoni fus’ha – adabiy arab tiliga asoslangan bo‘lsa-da, raqamli kommunikatsiya ushbu standartdan chetlashib, mahalliy dialektlarning yozma shaklda keng qo‘llanilishiga olib kelmoqda (Al-Saidi, 2020). Bu esa arab tilining rasmiy va norasmiy ko‘rinishlari o‘rtasidagi chegaralarni zaiflashtirib, dialektlar asosidagi yozishmalarni ijtimoiy va iqtisodiy kommunikatsiya jarayonlarida ham keng qo‘llashga zamin yaratmoqda (Versteegh, 2014).

Xususan, Misr shevasi bu jarayonda yetakchi rol o‘ynayotgan dialektlardan biri hisoblanadi. An’anaviy ravishda Misr shevasi asosan og‘zaki nutqda qo‘llanilgan bo‘lsa, bugungi kunda u ijtimoiy tarmoqlarda yozma formatda ham keng ishlatilmoque. Ilgari rasmiy yozishmalarda kamdan-kam uchraydigan mahalliy shevaga oid iboralar hozirda nafaqat shaxsiy muloqot, balki xabarlar, izohlar va hatto biznes reklamalari matnlarida ham qo‘llanmoqda (Holes, 2019). Masalan, ijtimoiy tarmoqlarda “inta 3amel eih?” - أنت عامل إيه؟ - “qalaysan?”) kabi iboralar “Arabizi” yozuvi orqali ifodalanmoqda, bu esa Misr shevasining raqamli muloqotga ta’sirini yaqqol namoyon etadi.

Bundan tashqari, Al-Wer (2017) tadqiqotlarida qayd etilganidek, arab yoshlarining ko‘philigi ijtimoiy tarmoqlarda fus’ha (adabiy arab tili) o‘rniga dialektlardan foydalanishga moyilligi ortib bormoqda. Ularning fikricha, fus’ha rasmiy va kitobiy bo‘lib, tezkor muloqot uchun mos emas. Natijada, arab tilida yozish jarayoni dialektlar va fus’ha aralashuvi shaklida rivojlanmoqda. Badawi (2016) bu holatni “tilning sotsiolingvistik darajalari” sifatida tavsiflab, arab tilida rasmiy va norasmiy muloqot o‘rtasidagi farq raqamli platformalarda yanada yaqqol namoyon bo‘layotganini ta’kidlaydi.

Misr shevasi nafaqat mamlakat ichida, balki butun arab dunyosida ommalashib bormoqda. YouTube va TikTok kabi platformalardagi Misr kontent yaratuvchilari, podkastlar va veb-seriallar orqali Misr shevasi butun mintaqada mashhurlikka erishmoqda (Versteegh, 2014). Bu esa arab yosh avlodining lingvistik imtiyozlariga bevosita ta'sir ko'rsatib, ularning muloqot uslublarini o'zgartirishga olib kelmoqda. Misr dialekti arab dunyosida kommunikatsiya tili sifatida mustahkamlanib borayotgan bo'lsa-da, bu jarayon adabiy arab tilining rolini zaiflashtirishi mumkinligi ham ehtimoldan holi emas.

Raqamli kommunikatsiyaning tezkor va qisqa ifodalarni talab qilishi arab tilida soddalashtirish jarayoniga kuchli ta'sir ko'rsatmoqda. An'anaviy arab tili grammatik jihatdan murakkab tuzilishga ega bo'lib, fus'ha (adabiy arab tili) grammatik qoidalari yozma va rasmiy nutqda qat'iy saqlanib kelgan. Biroq, raqamli muloqotda arab tilidan foydalanish yanada sodda va qisqa shaklga o'tdi. Bu holat, ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlar va tezkor xabar almashish platformalarida yaqqol kuzatilmoxda. Masalan, adabiy arab tilidagi (Ma alladhī taf'aluhu? – "Siz nima qilyapsiz?") shaklidagi savol raqamli muhitda "بِتَمِيلِيْهِ؟" (Bti'mil eih?) kabi qisqaroq variantga aylanmoqda (Holes, 2019). Bunday qisqartirishlar vaqtini tejash, matn tezligi va qulayligini oshirish uchun amalga oshirilmoqda. Badawi (2016) arab tilining zamonaviy muloqotda sodda va noformal shakllarga o'tishini "sotsiolingvistik darajalar nazariyasi" orqali tushuntiradi. Uning fikricha, arab tilining yuqori va past darajadagi shakllari orasidagi tafovut tobora kengayib bormoqda, ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlarda past darajadagi (ya'ni dialektal va qisqartirilgan) shakllar ustunlik qilmoqda.

Bundan tashqari, tilshunos olimlar (Al-Wer, 2017; Versteegh, 2014) arab tilining soddalashtirilishi nafaqat sintaktik va morfologik jihatdan, balki fonetik jihatdan ham yuz berayotganini ta'kidlaydilar. Masalan, "أَرِيدُ أَنْ أَدْهَبَ" (Urīdu an adhaba – "Men bormoqchiman") iborasi og'zaki va yozma dialektlarda "عَايِزُ ارُوحُ" (Ayiz arūh) kabi shakllarga o'tgan. Bu jarayon mintaqaviy farqlarni ham keltirib chiqaradi; masalan, Levantin arab shevalarida ushbu jumla "بَدِي رُوح" (Baddī rūh) tarzida ifodalanadi. Ushbu o'zgarishlar grammatik shakllarning soddalashtirilishi va qisqarishi bilan bir qatorda, fus'haning rasmiy maydonagi mavqeiga ham ta'sir ko'rsatmoqda (Al-Saidi, 2020).

Leksik jihatdan o'zgarishlarga kelsak, raqamli kommunikatsiya jarayonida arab tiliga ingliz va fransuz tillaridan yangi so'zlar kirib kelishi ham kuzatilmoxda. Texnologik taraqqiyot va global madaniy ta'sir natijasida arab dunyosiga yangi tushunchalar va atamalar jadal kirib kelmoqda. Misol uchun, "like" – ياعِم لَايْك (layk bos) yoki "share" – شِير البوسْت (postni ularsh) kabi inglizcha so'zlar Misr shevasi va boshqa arab dialektlarida keng qo'llanilmoqda (Abu-Melhim, 2018). Shuningdek, "download" (داونلود), "comment" (كومنت), "message" (مسج), "mute"

(مبيوت) kabi texnologik so‘zlar arab tilida muqobil ekvivalentlarga ega bo‘lsa ham, inglizcha shaklda ishlatilishi afzal ko‘rilmoxda (Al-Khatib & Sabbah, 2008).

Texnologiya va globalizatsiya ta’sirida dunyodagi ko‘plab tillar o‘zgarishlarga uchramoqda. Ushbu jarayonning eng yaqqol ko‘rinishlaridan biri “Arabizi” fenomenidir. “Arabizi” (Arabic + English) atamasi arab harflarini lotin yozuvi va raqamlar bilan almashtirish orqali arab tilidagi iboralarni yozma shaklda ifodalash amaliyotini anglatadi. Ushbu yozuv usuli asosan internet muloqoti, ijtimoiy tarmoqlar, SMS va tezkor xabar almashish platformalarida keng tarqalgan bo‘lib, ayniqsa, yosh avlod orasida mashhurlikka erishgan (Al-Tamimi, 2019).

“Arabizi” fenomenining paydo bo‘lishiga bir nechta omillar sabab bo‘lgan. Texnologik cheklovlar bu jarayonda katta rol o‘ynagan. 1990-yillar va 2000-yillarning boshlarida kompyuterlar va mobil telefonlarda arab yozuvi uchun mos klaviatura mavjud emas edi yoki u bilan yozish qiyinchilik tug‘dirardi. Natijada, arabcha matnlarni lotin harflari va raqamlar bilan ifodalash amaliyoti keng tarqaldi. Bundan tashqari, globalizatsiya va g‘arb tillarining ta’siri ham sezilarli bo‘ldi. Ingliz tilining internet va texnologiya sohasida ustun bo‘lgani sababli arab yosh avlodni ingliz klaviaturasi va gibridda yozuv tizimidan foydalanishga o‘tdi. Ingliz va fransuz tillarining keng tarqalishi arab tilidagi norasmiy muloqotga ham ta’sir ko‘rsatdi (Al-Tamimi, 2019). Yoshlar tezkor va oddiy yozish usuliga ehtiyoj sezganlari uchun “Arabizi” norasmiy muloqotning asosiy shakllaridan biriga aylandi. Arab davlatlarida, ayniqsa, internet muloqoti va ijtimoiy tarmoqlarda bu fenomen juda keng tarqalgan.

Arab dunyosining turli hududlarida “Arabizi” turlicha qo‘llaniladi. Misr, Livan, Iordaniya va Fors ko‘rfazi davlatlarida ushbu yozuv usuli ayniqsa mashhur bo‘lib, yoshlar orasida norasmiy yozishmalar va ijtimoiy tarmoqlardagi muloqotning asosiy shakllaridan biriga aylangan. Masalan, Misr shevasida “أنت عامل إيه؟” (Anta ‘āmil eih? – “Qalaysan?”) iborasi “inta 3amel eih?” shaklida yozilishi mumkin. Misr shevasida yana bir keng tarqalgan ibora “عازز أروح السينما” (āwiz arūh es-sinema – “Men kinoga bormoqchiman”) bo‘lib, “Arabizi” yozuvida “3awiz aro7 el cinema” tarzida yozilishi mumkin. Livanda esa Levantin shevasi ta’sirida “شوبتعل؟” (Shu bt‘amal? – “Nima qilayapsan?”) iborasi “shu bta3mil?” shaklida yozilishi kuzatiladi (Al-Tamimi, 2019).

“Arabizi” yozuvi odatda quyidagi qoidalarga asoslanadi. Ba’zi arab harflari lotin alifbosidagi ekvivalentlari bilan almashtiriladi. Masalan, “ب” → b, “ت” → t, “د” → d, “س” → s kabi harflar to‘g‘ridan-to‘g‘ri lotin harflari bilan ifodalanadi. Biroq, arab tilida mavjud bo‘lgan, ammo lotin alifbosida muqobili bo‘lmagan harflar raqamlar yoki maxsus belgilar bilan ifodalanadi. Masalan, “ع” harfi uchun 3 raqami ishlatiladi: “عربى” (arabi – “arabcha”) → 3arabi, “ح” harfi uchun 7 raqami ishlatiladi: “حلو” (hilu – “yoqimli”) → 7ilu, “ط” harfi uchun 6 raqami ishlatiladi: “طريق” (ṭarīq – “yo‘l”) → 6ariq, “ء” (hamza) harfi uchun apostrof (’) ishlatiladi: “مساء” (masa‘)

(masā' – “kech”) → masa'. So‘z tuzilishida qisqartirish va inglizcha ta’sirlar ham kuzatiladi. Masalan, “كيف حالك?” (Kayfa ḥāluka? – “Qalaysan?”) iborasi “keef halak?” yoki qisqartirilgan holda “kifak?” shaklida yozilishi mumkin.

“Arabizi” fenomenining ijobiy va salbiy jihatlari mavjud. Ijobiy jihatdan olib qaralganda, u internet va texnologiya vositalari orqali tezkor muloqot qilish imkonini beradi. Shuningdek, arab tilini o‘rganayotgan chet elliklar uchun arabcha iboralarni lotin yozuvida ifodalash orqali muloqotni osonlashtiradi (Al-Tamimi, 2019). Biroq, uning salbiy ta’siri ham sezilarli. Arab yozuvining klassik shakli yo‘qolish xavfi bor. Arab tilshunoslari va madaniyatshunoslari arab yozuvining an’anaviy shakli o‘z o‘rnini yo‘qotayotganidan xavotirda. Bundan tashqari, norasmiy yozishmalar ta’sirida adabiy arab tili (fus’ha) kamroq ishlatilmoxda va rasmiy yozishmalarda ham norasmiy til shakllari paydo bo‘layapti.

Yana bir muhim masala shundaki, “Arabizi” yozushi grammatik va imlo qoidalariga rioya qilmaslikka olib kelishi, natijada, rasmiy arab tili va yozuv me’yorlarining zaiflashishiga sabab bo‘lishi mumkin. Ayrim arab davlatlari “Arabizi” ning keng tarqalishini cheklashga harakat qilmoqda. Masalan, Saudiya Arabiston va Marokashda rasmiy hujjatlar va ta’lim tizimida faqat arab yozuvidan foydalanish talab etiladi. Birlashgan Arab Amirliklari kabi davlatlarda arab tilini himoya qilish bo‘yicha kampaniyalar olib borilmoqda. Shunga qaramay, internet va global texnologik muhit sababli “Arabizi” yoshlar orasida ommalashishda davom etmoqda. Kelajakda arab yozuvining qanday yo‘nalishda rivojlanishi haqida turli qarashlar mavjud. Ba’zi tadqiqotchilar “Arabizi” ning faqat vaqtinchalik fenomen ekanligini va texnologiya rivojlanishi bilan arab yozushi barqarorligini saqlab qolishini taxmin qilishadi. Boshqalar esa bu jarayon arab tilining yozma shakliga uzoq muddatli ta’sir o‘tkazib, yozuv tizimini yanada moslashuvchan va soddalashtirilgan shaklga olib kelishini ta’kidlaydilar.

Ushbu tendensiyalar arab tilining lug‘at tarkibiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Ba’zi an’anaviy arabcha so‘zlar iste’moldan chiqib, ularning o‘rnini zamonaviy, asosan g‘arb tillaridan olingan so‘zlar egallamoqda. Masalan, oldin arab tilida “حاسوب” (ḥāsūb) kompyuter ma’nosida ishlatilgan bo‘lsa, hozirda inglizcha “كمبيوتر” (kumbiyütir) shakli keng qo’llanmoqda. Shuningdek, “بريد إلكتروني” (barīd elektronik – “elektron pochta”) so‘zining o‘rniga “إيميل” (īmēl) shakli ommalashgan.

Ba’zi tadqiqotchilar bunday leksik o‘zgarishlarni tilning tabiiy rivojlanish jarayoni deb baholashsa (Holes, 2019), boshqalar esa bu arab tilining milliy o‘ziga xosligini yo‘qotishiga sabab bo‘lishi mumkinligini ta’kidlaydilar (Albirini, 2016). Arab davlatlari til siyosatida bu masala dolzarb bo‘lib, ayrim mamlakatlar (masalan, Marokash va Saudiya Arabiston) ingliz va fransuz ta’sirini cheklash uchun rasmiy ravishda arabcha muqobil terminlarni ishlab chiqishga harakat qilmoqda (Eisele, 2003). Ammo amaliyotda bu tashabbuslar deyarli natija bermayapti, chunki

raqamli kommunikatsiya va globalizatsiya jarayoni leksik o‘zgarishlarni kuchaytirishda davom etmoqda.

Fonetik o‘zgarishlar ham raqamli kommunikatsiya natijasida sezilarli darajada kuchaymoqda. Ijtimoiy media orqali arab dunyosining turli hududlaridan bo‘lgan foydalanuvchilar bir-biri bilan bevosita aloqaga kirishmoqda, natijada turli dialektlar o‘zaro aralashib, talaffuz o‘zgarishlariga olib kelmoqda (Badawi, 2016). Bulardan, xususan, Misr shevasida ham ma’lum tovushlarning talaffuzi boshqa arab dialektlariga ta’sir qilayotgani, ba’zi urg‘ular esa ijtimoiy media orqali keng tarqalib borayotgani kuzatilmogda. Ushbu o‘zgarishlarning asosiy sabablari sifatida raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi, globalizatsiya va kommunikatsiya vositalarining rivoji ko‘rsatib o‘tiladi. Raqamli media orqali muloqot qilish zarurati odamlarni o‘z ifoda uslubini soddalashtirishga, tezkor va tushunarli usullardan foydalanishga undaydi. Ijtimoiy tarmoqlarda muloqotning interaktiv shakli, vizual kontentning yetakchi rol o‘ynashi ham arab tilining rivojlanish yo‘nalishlariga ta’sir ko‘rsatmoqda.

Kelajakda arab tilining raqamli muhitda qanday rivojlanishi muhokama mavzusi bo‘lib qolmoqda. Ba’zi tadqiqotchilar bu jarayon adabiy arab tilining zaiflashishiga olib kelishini taxmin qilmoqda, chunki yosh avlod adabiy arab tili grammatikasidan kamroq foydalanmoqda (Al-Athwary, 2017). Boshqalar esa bu o‘zgarishlar arab tilining moslashuvchanligini oshirib, yangi kommunikatsion standartlarning shakllanishiga olib kelishini ta’kidlamoqda. Xususan, Misr shevasi internet va raqamli kommunikatsiya vositalari orqali nafaqat arab mintaqasida, balki xalqaro miqyosda ham ommalashmoqda. Shu sababli, kelajakda arab tili ta’limi va til siyosati raqamli muhitning ta’sirini inobatga olgan holda shakllantirilishi lozim.

Xulosa. Ushbu tadqiqot raqamli ommaviy axborot vositalarining Misr shevasiga va adabiy arab tiliga ta’sirini o‘rganishga qaratildi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, ijtimoiy tarmoqlar va media platformalar Misr shevasining yozma shaklda keng qo‘llanilishiga sabab bo‘lib, uning mintaqaviy muloqot tili sifatida mavqeini mustahkamlashda muhim rol o‘ynamoqda. Bu esa adabiy arab tilining kommunikativ maydonini qisqartirishga olib kelishi mumkin. Shuningdek, “Arabizi” yozushi va inglizcha so‘zlarning kirib kelishi Misr shevasining leksik va grammatik jihatdan o‘zgarishiga ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu jarayon arab tilining umumiyligi standartlashuviga va yozuv tizimiga ta’sir etishi mumkin. Tadqiqot gipotezasi tasdiqlandi: raqamli media Misr shevasining o‘z mavqeini mustahkamlashiga va arab tilining umumiyligi rivojlanish jarayoniga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Kelajakda Misr shevasining raqamli kommunikatsiyadagi o‘rniga va uning adabiy arab tiliga uzoq muddatli ta’siri chuqurroq tahlil qilinishi zarur. Shu bois, til siyosati bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish va arab tilining mintaqaviy hamda umumiyligi standartlashuv jarayonlarini muvozanatlash bo‘yicha qo‘sishimcha tadqiqotlar talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. Al-Athwary, A. (2017). Digital media and Arabic language change: Challenges and opportunities. *International Journal of Arabic Linguistics*, 6(1), 21-39.
2. Al-Saidi, M. (2020). Digital communication and the transformation of Arabic language: A sociolinguistic perspective. *Journal of Arabic Linguistics*, 12(3), 45-63.
3. Abu-Melhim, A. (2018). The influence of social media on Arabic dialects: The case of Egyptian Arabic on YouTube and Instagram. *Language and Society*, 19(2), 78-95.
4. Badawi, E. (2016). Media and the spread of Egyptian Arabic: A study of dialect prestige and linguistic change. *Arab Studies Journal*, 24(1), 34-56.
5. Holes, C. (2019). Modern Arabic: Structures, functions, and varieties. Georgetown University Press.
6. Versteegh, K. (2014). The Arabic language. Edinburgh University Press.
7. Warschauer, M., & El Said, G. R. (2010). Language and the Internet in Egypt. *Arab Media & Society*, 10, 1-19.
8. Yaghan, M. A. (2008). Arabizi: A contemporary style of Arabic slang. *Design Issues*, 24(2), 39-52.
9. Bassiouney, R. (2009). Arabic sociolinguistics. Edinburgh University Press.
10. Ibrahim, M. H. (1986). Standard and prestige language: A problem in Arabic sociolinguistics. *Anthropological Linguistics*, 28(1), 115-126.
11. Al-Khatib, M. A., & Sabbah, E. (2008). Language change and variation in Jordanian Arabic in internet chatting. *Sky Journal of Linguistics*, 21, 15-38.
12. Al-Tamimi, M. (2019). The Sociolinguistic Impact of Arabizi on Arabic Language Use among Youth in the Arab World. *Journal of Arabic Linguistics Studies*, 15(2), 102-135.
13. Khilola A. Yuldasheva. (2024). EXPLORING THE IDEAS OF IDENTITY IN ARABIC LITERATURE: THE INTERPLAY OF TRADITION AND TRANSFORMATION. *International Scientific and Current Research Conferences*, 1(01), 137–141. Retrieved from <https://orientalpublication.com/index.php/iscrc/article/view/1546>
14. Khilola A. Yuldasheva, . (2023). THE IDEOLOGICAL ROLE OF THE ARABIC LANGUAGE IN FORMING NATIONAL IDENTITY. *European International Journal of Philological Sciences*, 3(10), 14–18. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/eijps/article/view/25630>
15. Khilola A. Yuldasheva. (2024). EXPLORING THE IDEAS OF IDENTITY IN ARABIC LITERATURE: THE INTERPLAY OF TRADITION AND TRANSFORMATION. *International Scientific and Current Research Conferences*, 1(01), 137–141. Retrieved from <https://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/issue/view/37>

16. Khilola A. Yuldasheva, . (2023). THE IDEOLOGICAL ROLE OF THE ARABIC LANGUAGE IN FORMING NATIONAL IDENTITY. European International Journal of Philological Sciences, 3(10), 14–18. Retrieved from.
<https://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/issue/view/37>